OAV vakillari, talaba va o’quvchilar Genomika va bioinformatika markazi faoliyati bilan yaqindan tanishdi

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi o‘simliklar genomi bilan bog‘lik zamonaviy ilmiy izlanishlar olib borish va ularni tadbiq qilish bilan shug‘ullanadi hamda hozirda bir qator yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur Markaz faoliyati bilan keng jamoatchilikni yaqindan tanishtirish, olimlar, laboratoriyalar ish jarayonini bevosita kuzatish, sohadagi ilmiy yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida bugun, 28-mart kuni OAV vakillari uchun press-tur va Yangi O‘zbekiston universiteti talabalari hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi o‘quvchilari uchun “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi.

Press-tur ishtirokchilari Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan qishloq xo’jaligi o’simliklari genomlari strukturasini o’rganish, g’o’za, bo’g’doy, soya, sholi, anor va uzum navlari uchun gen-muhandisligi va genom texnologiyalarini qo’llash; gen va hujayra muxandisligi, markerlarga asoslangan selektsiya, genom va virtual selektsiya dasturlarini ishlab chiqish va ular asosida stress omillariga (sovuqqa, qurg’oqchilikka, sho’rlanish), kasalliklar (viltga) chidamli bo’lgan yangi, tolasi yuqori sifatli “genetik boyitilgan” hamda zararkunandalariga (ko’sak qurti) chidamli g’o’zaning tizmalari (liniya) va navlarini yaratish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Ma’lumot o’rnida: bugungi kunda Markazda 6 ta laboratoriya, Personallashtirilgan qishloq xo’jaligi ekinlarini o’rganish bo’limi, shuningdek, zamonaviy ilmiy usullar va asbob-uskunalardan foydalanib genetik o’zgartirilgan organizmlar va ularning mahsulotlarini test qilish maqsadida Milliy muvofiqlashtirish markazi bo’limi faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, Markazda Toshkent viloyatida joylashgan Maxsus urug’chilik xo’jaligi, Issiqxona, Fitatron hamda Germaplazma noyob obyektlari ham mavjud.